

**1991-2001-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA NODAVLAT TA’LIM
MUASSASALARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. FARG‘ONA
VILOYATI XUSUSIY MAKTABLARI FAOLIYATI MISOLIDA**

Nigmatova Sadoqatxon G‘ulomaxmadovna

Farg‘ona davlat universiteti

1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan to 2001-yilgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida nodavlat ta’lim tizimining shakllanish bosqichlari Farg‘ona viloyati misolida tahlil qilingan. Tadqiqotda 1991–2001-yillardagi islohotlar natijasida xususiy maktablar faoliyati qiyosiy o‘rganilgan. Maqolada huquqiy-me‘yoriy hujjatlar, statistik ma’lumotlar va ijtimoiy omillarga tayangan holda sohadagi yutuq va muammolar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, nodavlat ta’lim muassasalari, xususiy maktablar, Farg‘ona viloyati, ta’lim islohotlari, Davlat-xususiy sheriklik (DXSh), Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, ta’lim sifati, litsenziyalash, intellektual salohiyat.

Ta’lim tizimi har qanday davlat va jamiyat taraqqiyotining poydevori, uning kelajagini belgilab beruvchi asosiy kuchdir. O‘zbekiston Respublikasi 1991-yilda o‘z davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalarida bo‘lgani kabi, ta’lim sohasida ham tub islohotlarni amalga oshirishga kirishdi. Sovet davrida shakllangan, mafkuraviy qoliplarga solingan va markazlashgan boshqaruvga asoslangan ta’lim tizimidan voz kechilib, milliy qadriyatlar hamda jahon andozalariga mos keluvchi yangi tizimni yaratish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi etib belgilandi.



Mavzuning dolzarbligi shundaki, 1991-2001 yillar oralig'ida O'zbekistonda ta'lim tizimi murakkab bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Xususan, davlat monopoliyasiga asoslangan umumta'lim tizimiga muqobil sifatida nodavlat (xususiy) ta'lim sektorining kirib kelishi va shakllanishi tarixiy jihatdan chuqur o'rganishni talab etadi. Respublika aholisining katta qismi istiqomat qiluvchi, intellektual salohiyati va tadbirkorlik muhiti yuqori bo'lgan Farg'ona viloyati misolida ushbu jarayonni tahlil qilish, sohadagi yutuq va kamchiliklarni xolis baholashga imkon beradi.

Farg'ona viloyatida nodavlat ta'lim muassasalarining, xususan, xususiy maktablarning paydo bo'lishi shunchaki iqtisodiy faoliyat turi emas, balki jamiyatning sifatli ta'limga bo'lgan ijtimoiy buyurtmasi natijasidir. Ushbu maqolada 1991-2001-yillar mobaynida huquqiy bazaning takomillashuvi, iqtisodiy omillar va ijtimoiy qarashlarning o'zgarishi tahlil qilinadi.

Farg'ona viloyatida xususiy maktablarning tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanishi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha davrlarni o'z ichiga oladi:

1. 1991-1997-yillar ta'lim qonunchiligi va nodavlat sektor uchun huquqiy poydevorning yaratilishi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida asosiy e'tibor eski tuzumdan qolgan ta'lim tizimini saqlab qolish va uni asta-sekin isloh qilishga qaratildi. 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har bir shaxsning bilim olish huquqi kafolatlandi va davlat bepul umumiy ta'limni ta'minlashi belgilandi[1:14]. Shu bilan birga, Konstitutsiya va 1992-yilgi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda mulkchilikning turli shakllariga asoslangan ta'lim muassasalarining faoliyat yuritishiga ruxsat berildi[2:6].

Biroq, 1991-1997 yillar davomida Farg'ona viloyatida to'laqonli xususiy maktablar tashkil etish jarayoni juda sust kechdi. Buning bir qancha obyektiv sabablari mavjud edi:

– birinchidan, o'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklari. 90-yillarning boshlarida yuzaga kelgan giperinflyatsiya va iqtisodiy tanglik aholining to'lov



qobiliyatini keskin pasaytirib yubordi. Ota-onalar farzandini pullik maktabda o'qitishdan ko'ra, ro'zg'or tebratish tashvishi bilan band edilar;

– ikkinchidan, huquqiy mexanizmlarning yo'qligi. Qonunda xususiy maktab ochishga ruxsat berilgan bo'lsa-da, uning litsenziyalash tartibi, davlat ta'lim standartlariga mosligini tekshirish va bitiruvchilarga beriladigan hujjat (attestat)ning yuridik kuchi masalalari ochiq qolgan edi[3:4].

Shu bois, Farg'ona, Qo'qon va Marg'ilon kabi yirik shaharlarda nodavlat ta'lim asosan yakka tartibdagi repetitorlik faoliyati yoki qisqa muddatli hunar va til o'rgatish kurslari ko'rinishida namoyon bo'ldi. Bu davrda "xususiy maktab" tushunchasi hali xalqimiz ongiga singib ulgurmagan, davlat maktablari yagona va muqobilsiz ta'lim o'chog'i hisoblanardi.

2. 1998-2001-yillar "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" davrida Farg'ona viloyatida nodavlat ta'lim holati: muammolar va turg'unlik[4:2].

1997-yil 29-avgustda Oliy Majlisning IX sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrirda) va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilindi[5:12]. Bu dastur O'zbekiston ta'lim tizimida ulkan qurilishlar va o'zgarishlar davrini boshlab berdi.

Farg'ona viloyatida ham 1998-2001 yillar oralig'ida asosan, abituriendlarni tayyorlashga mo'ljallangan repitetorlik markazlari barpo etildi. Davlat tomonidan o'quv markaz ochilishiga litsenziya berish masalasida bir qator qiyinchiliklar bo'lganligi bois, nodavlat maktablarni rivojlantirish masalasi ikkinchi darajali bo'lib qoldi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1991-2001 yillar davomida Farg'ona viloyatida nodavlat ta'lim muassasalari tizimi "yo'qlikdan - ko'plikka", "taqiqdan - rag'batga" tamoyili asosida rivojlandi. Bu davrni xususiy ta'lim uchun "yashirin imkoniyatlar" va "boy berilgan yillar" deb baholash mumkin[6:4]. Iqtisodiy qiyinchiliklar va ma'muriy to'siqlar sababli Farg'ona viloyatida xususiy maktablar tizimi shakllanmadi.



Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, 2001-yilga kelib Farg‘ona viloyatida davlat va nodavlat ta’lim sektorlari o‘rtasida sog‘lom raqobat muhiti yuzaga kelishni boshladi. Biroq bu jarayon o‘quv markazlar faoliyatida kuzatildi[7:3]. Xususiyl maktab ochish uchun litsenziya olish va hujjatlar tayyorlashda bir qator muammolar mavjudligicha qolaverdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 50-modda. 2023.04.30. 17 b.
2. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun.1992.07.02. 12 b
3. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun.1997.08.29. 20 b
4. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. 1997. 08.29. 13 b
5. “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun. 2020.09.23. 20 b
6. Farg‘ona viloyati Xalq ta’limi boshqarmasining 2000-2001 yillarga oid yillik statistik hisobotlari.4 b
7. Farg‘ona viloyati Xalq ta’limi boshqarmasining 200-2001 yillarga oid yillik statistik hisobotlari.7 b

